# FARG‘ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## FARG‘ONA VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI 2023-YIL YANVAR-OKTABR (DASTLABKI MA’LUMOT)



**Tel.: 73-241-96-28**
**www.farstat.uz**

# Farg‘ona viloyati
# sanoatining asosiy ko‘rsatkichlari

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2023-yilning yanvar-oktabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 28 642,2 mlrd.so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 105,2% ni tashkil etdi.









Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining uch yillik ko‘rsatkichlari o‘sish tartibida, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi yildan yilga o‘sayotganligini ko‘rsatadi.

# Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Farg‘ona viloyatida 2023-yil yanvar-oktabr oylariga aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi 7145,5 ming so‘mni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich aholi ehtiyojlari ishlab chiqarish mahsulotlariga nisbatan o‘sib borayotganini ko‘rsatadi.









Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xaridorgirligi va aholi talablariga mosligini baholash uchun ham biz sanoat mahsulotlarining aholi jon boshiga to‘g‘ri kelish ko‘rsatkichlarini hisoblab borishimiz kerak.

2023-yilning yanvar-oktabr oylarida aholi jon boshiga to‘g‘ri kelgan sanoat mahsulotlari ko‘rsatkichlari shuni bildiradiki, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan sanoat mahsulotlariga nisbatan aholining ehtiyoji o‘sganligi hamda aholi sonining ham o‘sib borayotganligini bildiradi.

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsif-lovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*

## Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, **26 547,0** mlrd.so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi **92,7 %** ni, tashkil etdi.






## B seksiya

### Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **183,9** mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **0,6 %** ini tashkil etdi.



yanvar-oktabr

| | |
|---|---|
| **2022-y.** | 71,6 *mlrd. so‘m* |
| **2023-y.** | 183,9 *mlrd. so‘m* |

**FHI, *%da***

| | |
|---|---|
| **2022-y.** | 29,9% |
| **2023-y.** | 242,8% |

## C seksiya

### Ishlab chiqaradigan sanoat

2023-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **26 547,0** mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining **92,7 %** ini tashkil etdi.

yanvar-oktabr

| | |
|---|---|
| **2022-y.** | 22 870,1 *mlrd. so‘m* |
| **2023-y.** | 26 547,0 *mlrd. so‘m* |

**FHI, *%da***

| | |
|---|---|
| **2022-y.** | 105,1% |
| **2023-y.** | 103,3% |



## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

*O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*

| Yil | Dizel yoqilg‘isi | Avtomobil benzini | Klinker sement |
|---|---|---|---|
| 2023 | 136.0 | 135.4 | 97.2 |
| 2022 | 82.8 | 102.2 | 89.9 |
| 2021 | 114.7 | 125.2 | 119.2 |

| Yil | O‘simlik yog‘i (tozalangan) | Portlandsement | Yumshoq bug‘doy va spelta uni |
|---|---|---|---|
| 2023 | 48.0 | 78.1 | 87.5 |
| 2022 | 86.1 | 109.8 | 88.0 |
| 2021 | 62.3 | 99.6 | 91.7 |

| Yil | Neft bitumi | Aroq ming litr (100% spirt) | Uzum vinosi |
|---|---|---|---|
| 2023 | 167.9 | 94.1 | 112.8 |
| 2022 | 64.7 | 66.1 | 63.1 |
| 2021 | 175.9 | 99.6 | 53.8 |

| Yil | Karbamid | Paxta chigiti | Paxta linti |
|---|---|---|---|
| 2023 | 104.5 | 135.6 | 126.2 |
| 2022 | 93.9 | 118.3 | 157.7 |
| 2021 | 89.9 | 138.7 | 195.3 |

2023-yilning yanvar-oktabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 261,0 ming tonna avtomobil benzini (2022-yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan 35,4% ga ko‘paygan), 358,3 ming tonna dizel yoqilg‘isi (36,0 % ko‘paygan), 88,2 ming tonna kalava ip mahsulotlari (12,3%ga kamaygan) hamda 26441,8 ming kv metr paxtadan tayyorlangan matolar (32,3%ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.










## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2022-yil yanvar-oktabr | 2023-yil yanvar-oktabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Avtomobil benzini, ming t | 192,8 | 261,0 | 68,2 |
| Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t. | 188,7 | 229,4 | 40,7 |
| Paxta chigiti, ming t. | 65,0 | 108,8 | 43,8 |
| O'simlik yog'i (tozalangan), ming t. | 12,8 | 6,2 | -6,6 |

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 9,3 % (2022-yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 118,6%), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlari ishlab chiqarishining ulushi – 36,6% (2022-yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 101,9 %), oziq-ovqat, ichimlik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 14,0% (2022-yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 98,6%), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 16,2 % (2022-yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 112,0 %)ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,4 %ni (2022-yilning yanvar-avgust oylarida – 0,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 17,3 % (16,2 %), o'rta-quyi texnologiyali – 23,9% (21,5%) va quyi texnologiyalisi – 51,1% (55,4%)ni tashkil etdi.



## Metallurgiya sanoati






Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-oktabr oylarida metallurgiya sanoati 252,2 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,9%ni tashkil etib, fizik hajm indeksi esa 173,3 % ni tashkil etgan.

2022-yilning yanvar-oktabr oylarida metallurgiya sanoati 104,5 mlrd.so‘mni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,5%ni etdi o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 28,5 % ga kamaydi.

## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish






2023-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 13,2 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 4,7 % ga o‘sgan va ishlab chiqarish hajmi 3 515,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 12,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 113,5 % ni tashkil etgan.

## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish






2023-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 13,7 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 1,9 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 3629,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 15,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 101,3 % ni tashkil etgan.

## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2023-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko‘ra, ichimliklar ishlab chiqarishining oziq-ovqat mahsulotlaridagi ulushi 2,1 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 33,1 % ga o‘sdi va ishlab chiqarish hajmi 78,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi. 2022-yilning yanvar-oktabr oylarida ichimliklar ishlab chiqarishining oziq-ovqat mahsulotlaridagi ulushi ulushi 1,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 71,2 % ni tashkil etgan.






## To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2023-yilning yanvar-oktabr oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 29,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 2,7 % ga kamaygan bo‘lsa, ishlab chiqarish hajmi 7 707,0 mlrd.so‘mni tashkil etdi. Shuningdek, 2022-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 33,5 % ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 113,9 % ni tashkil etgan.






## Kiyim ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,7 %, fizik hajm indeksi 121,1 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 1524,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi. 2022-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko‘ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,4 % ni, fizik hajm indeksi esa 101,6 % ni tashkil etgan.





## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish






2023-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko‘ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 12,8 % ni, fizik hajm indeksi 106,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 3389,2 mlrd.so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 12,7 % ni fizik hajm indeksi esa 138,4 % ni tashkil etgan.

## Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish






2023-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko‘ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarining ishlab chiqarish sanoatidagi ulushi 5,0 % ni, fizik hajm indeksi 83,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1317,4 mlrd.so‘mni tashkil etdi. Shuningdek, 2022-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,9 % ni fizik hajm indeksi esa 45,9 % ni tashkil etgan.

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish






2023-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,5 % ni, fizik hajm indeksi 144,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 920,2 mlrd.so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,5 % ni fizik hajm indeksi esa 72,5 % ni tashkil etgan.

## Elektr uskunalari ishlab chiqarish



2023-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko‘ra, ishlab chiqaradigan sanoatda elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ulushi 0,9 % ni, fizik hajm indeksi 136,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 244,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 % ni fizik hajm indeksi esa 89,2 % ni tashkil etgan.




## Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish



2023-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko‘ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,1 % ni, fizik hajm indeksi 118,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 830,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,5 % ni fizik hajm indeksi esa 86,9 % ni tashkil etgan.




## Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish



2023-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko‘ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,1 %, fizik hajm indeksi 24,6 % ga o‘sdi hamda ishlab chiqarish hajmi 825,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar- oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,2 % ni fizik hajm indeksi esa 173,4 % ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan 2023-yil yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1 721,0 mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,0 % ini) tashkil etadi.

2023-yilning yanvar-oktabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 326,8 mlrd. so‘mga ko‘payganligi kuzatildi.

**Yanvar-oktabr**

| | | |
|---|---|---|
| | **D** | ***FHI, %da*** |
| ***2023-yil*** | **1 721,0 mlrd.so‘m** | **122,6%** |
| ***2022-yil*** | **1 394,2 mlrd.so‘m** | **121,9%** |



## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2022- yil yanvar-oktabr | 2023- yil yanvar-oktabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya, mln.kVt.s** | **336,2** | **315,8** | **-20,4** |
| **Issiqlik energiyasi, ming gkal** | **1074,8** | **1305,0** | **230,2** |

# Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

# E seksiya

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 190,3 mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 %ini) tashkil etdi.

| Yanvar-oktabr | | FHI, %da |
|---|---|---|
| *2023-yil* | **190,3 mlrd.so‘m** | **102,8%** |
| *2022-yil* | **192,3 mlrd.so‘m** | **98,7 %** |




| Sanoat mahsulotlari | 2022- yil yanvar-oktabr | 2023- yil yanvar-oktabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar, *mlrd.so‘m* | **18,2** | **16,5** | **-1,7** |
| Axlat o‘ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo‘shatish, tozalash va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar, *mlrd.so‘m* | **24,4** | **17,3** | **-7,1** |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar 1,7 mlrd. so‘m yoki 9,2 %ga kamayganligi kuzatildi. Shuningdek axlat o‘ralarini tindirgichlarini va septiklarni bo‘shatish, tozalash va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar 7,1 mlrd. so‘m va 22,8 %ga kamaygan.

# Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 6 948,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2022-yilning mos davriga nisbatan 101,5%ni, uning jami sanoatdagi ulushi 24,3%ni tashkil etdi.

**Oziq-ovqat mahsulotlari** | **Nooziq-ovqat mahsulotlari**

*Jami iste’mol mahsulotlaridagi ulushi, %da*

**2023-yil yanvar-oktabr**




**2022-yil yanvar-oktabr**




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari 63,1 mlrd.so‘mni tashkil etdi.

| | |
|---|---|
| 2022-yil | 80,4% |
| 2023-yil | 97,3% |





# Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Farg‘ona viloyati bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1733,5 ming so‘m bo‘lgani holda 2022-yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 99,3 %ni tashkil etdi.

**Farg‘ona viloyati**

| | | | |
|---|---|---|---|
| **2022-yil** | **105,8%** | **2092,3** | **ming so‘m** |

***2022-yil yanvar-oktabr***

| | | | |
|---|---|---|---|
| **2023-yil** | **99,3%** | **1733,5** | **ming so‘m** |

***2023-yil yanvar-oktabr***



# Viloyat bo‘yicha oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining Farg‘ona viloyati jami oziq-ovqat mahsulotlari 3070,9 mlrd.so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, jami nooziq-ovqat mahsulotlari hajmi esa 3877,6 mlrd.so‘mni tashkil etdi.

***Oziq-ovqat mahsulotlari***
***Yanvar-oktabr***

*Hajmi, mlrd.so‘m*

**3022,7** **2022-yil**

**3070,9** **2023-yil**

*O‘sish sur’ati %da*

**106,6%** **2022-yil**

**101,3%** **2023-yil**



***Nooziq-ovqat mahsulotlari***
***Yanvar-oktabr***

*Hajmi, mlrd.so‘m*

**5190,1** **2022-yil**

**3877,6** **2023-yil**

*O‘sish sur’ati %da*

**108,9%** **2022-yil**

**101,6%** **2023-yil**



## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishida kichik biznesning ulushi 2023-yilning yanvar-oktabr oylarida

*jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi (foiz)da*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 13 898,8 mlrd.so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 48,5 %ni tashkil etdi.

*2023-yil 1noyabr holatiga*

## Farg‘ona viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda Farg‘ona viloyatida **12623** ta sanoat korxonalari ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib ulardan **8024** tasi faoliyat ko‘rsatmoqda.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar**

**2022-yil** — **1609 dona**

**2023-yil** — **1521 dona**

**Jami faoliyat yuritayotgan korxonalar**

**2022-yil** — **10785 dona**

**2023-yil** — **8024 dona**

